

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

A.QAHHORNING “SINCHALIK” QISSASIDA KONNOTATIV MA’NONING IFODALANISHI

Mo‘minova Yulduz

Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistent o‘qituvchisi

Mamatsapoyeva Sevinch

Toshkent gumanitar fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya:

Konnotativ ma’noning leksik usul bilan ifodalanishi, ya’ni metafora, metanimiya va senikdoxa orqali ifodalash asarning ta’sir kuchuni ham oshiradi. Badiiy matnlarda, she’riyatda ko‘chimlarning eng ko‘p qo‘llanuvchi turlaridan biri bu metaforalardir. Chunki so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilikini tasviriyligini oshirishdan iborat. Metaforik qo‘llashda bir predmet shaklining, belgisi yoki harakatining o‘xshash tomoni boshqa bir narsaga ko‘chiriladi. Shuning uchun ham yozuvchi asar ta’sirchanligini ko‘chaytirish, obrazlilikini oshirish maqsadida foydalaniladi. A.Qahhor ham asar badiiyligini oshirish, konnotativ ma’noni kuchaytirish maqsadida o‘zi tomonidan yaratilgan xususiy metaforalar ham yaratgan.

Kalit so‘z: konnotativ, so‘z, metanimiya, metafora, denotativ, A.Qahhor, “Sinchalak”, ko‘chim

So‘z va uning asosiy ma’nolari – denotativ va konnotativ ma’nolari orqali ifodalanadi. Ularning nutq jarayonidagi asosiy vazifalari so‘zlarning ma’nolarini ochib berishda kuchli emotsianallikni ifodalashda konnotativ ma’no orqali ifodalanadi. Til mohiyati, ichki qurilishi jihatdan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma’no bildirib shu asosda informatsiya (aloqa) vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettirgan tafakkur shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo‘lgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bog‘liq. Agar tilning atash vazifasi uning tafakkur shakli, tushunchalarni qolipga soluvchi bir vosita ekanligi bilan bog‘liq bo‘lsa, uning ekspressiv vazifasi tilning mustaqil sistema



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlari asosida ochilishi mumkinligi bilan bog'liq. So'z semantikasida denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no ham mavjud. Konnotativ ma'no so'z semantikasidan denotativ ma'no ajralgandan keyin hosil bo'lgan ayirmaga teng. O.S. Axmanovanning ta'kidlashicha, so'z semantikasida 2 xil konnotatsiya mavjud: 1) ingerent konnotatsiya - so'z matndan tashqari holatida unga xos bo'lgan konnotativ ma'no. 2) adgerent konnotatsiya-so'zda ma'lum kontekstda paydo bo'ladigan konnotativ ma'no kabilar.

Konnotativ ma'noning leksik usul bilan ifodalanishi, ya'ni metafora, metanimiya va senikdoxa orqali ifodalash asarning ta'sir kuchuni ham oshiradi. Badiiy matnlarda, she'riyatda ko'chmlarning eng ko'p qo'llanuvchi turlaridan biri bu metaforalardir. Chunki so'zlarni metaforik ma'noda qo'llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilikini tasviriyligini oshirishdan iborat. Metaforik qo'llashda bir predmet shaklining, belgisi yoki harakatining o'xshash tomoni boshqa bir narsaga ko'chiriladi. Shuning uchun ham yozuvchi asar ta'sirchanligini ko'chaytirish, obrazlilikini oshirish maqsadida foydalaniladi. A.Qahhor ham asar badiiyligini oshirish, konnotativ ma'noni kuchaytirish maqsadida o'zi tomonidan yaratilgan xususiy metaforalar ham yaratgan.

Buyuk so'z ustasi Abdulla Qahhor yaratgan har bir asarida o'zgacha uslub, so'z qo'llash mahorati va kam so'zdan chiroyli badiiy jihatdan jilolangan barqaror birliklarni qo'llash kabi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning yana bir mahorati bir qo'llagan so'zni ikkinchi marta qo'llab asar jozibasiga putur yetkazmaydi. Asarlarini o'qir ekanmiz asardagi so'zlarning ma'nosi va takrorlanmasligiga qarab kishi hayratga tushadi. Mana shu xususiyatlar Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida alohida o'ringa egadir. Asar qahramonlarining har birining turli-tuman, lekin har biri o'ziga xos, fe'li, tabiati, fikrlash tarsi, so'zlash yo'sini bilan farqlanib turishadi. U qissasidagi qahramonlar orqali nima demoqchiligini va kam so'zlash orqali ularni xarakterini ochib bergan. Qissadagi asosiy qahramonlar Arslonbek Qalandarov va Saida Aliyevalar obraziga boqar ekanmiz hayotda ham shunday insonlar borligiga guvoh bo'lamiz. Bu kabi holatlarni yozuvchi konnotativ ma'no orqali yanada ta'sirli chiqishi uchun deyarli ko'p foydalangan. Yozuvchi asarlarida sinonim va antonim so'zlar orqali ham ko'plab konnotativ ma'noning ta'sirchan va obrazli tarzda ifodalanganligining guvohi bo'lamiz. Masalan:

Eshon: :Juda o'tkir gap bo'ldi",- degan ma'noda bosh chayqab qotib-botib kuldi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Huriniso: “Birovning oldida qudamizni kalaka qilma”,- demoqchi bo‘lib eriga xo‘mraydi. Lekin Qalandarov bunga e‘tibor qilmadi.

Bu yerda “o‘tkir gap bo‘ldi” birikmasida ko‘chma ma‘noni ifodalovchi konnotativ ma‘no ifodalangan. Leksik birlikda o‘tkir so‘zi orqali konnotativ ma‘noning metafora orqali ifodalanishini kuzatish mumkin. Bu yerda o‘tkir so‘zi denotative ma‘nosi bilan birga konnotativ ma‘no ifodalashda emotsionallikni kuchaytiradi. Ya‘ni o‘tkir deganda gapning o‘tkiri yo‘qligini hammamiz bilamiz, lekin shunday insonlar borki so‘zlagan so‘zi juda ma‘noli va qaysi doira insonlariga qaratilgan bo‘lsa ham yetib borishi va ta‘sir qilish xususiyati kuchli bo‘ladi. (“Sinchalak” qissasi 34-bet).

1. Butun bir ro‘zg‘orni ko‘targan tuyaga bitta elak og‘irlik qilgan ekan. Bizning jiyanimiz to‘g‘risidagi arzimaydigan masalani pardoqlab kecha majlisga solganingiz menga uncha botmay turibdi. O‘n bir yashar qiz bolani egov qilib, bizning obro‘yimizni egovlamasangiz ham bo‘lar edi. Bu to‘g‘rida maktab direktori, o‘qituvchilar gapirsa, o‘zinga olmas edim, nega desangiz: mahmadonalik-kasbi...(O‘sha qissa 97-bet). Bu matndan shuni anglash mumkinki, u ham bo‘lsa obro‘yni egovlamoq birligida ham metaforik ko‘chim mavjud. Obro‘yni egovlab bo‘lmasligi, ya‘ni biron bir holatni qayta-qayta takrorlash natijasida insonga ziyon berish, ozor chekishi holatini tasvirlash uchun foydalangan.

Shoir o‘z asarlarida boshqa tasviriy vositalari singari metanimiyadan ham o‘rinli foydalangan. Lekin u boshqa tasviriy vositalar singari keng tarqalmagan bo‘lsa ham lekin tilning estetik funksiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Metonimiya usuli bilan ma‘no ko‘chishi quyidagi hollarda sodir bo‘ladi:

1. bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi.
2. Bir narsaning nomi shu narsaga asoslangan o‘lchov birligining nomi bo‘lib xizmat qiladi.

- 3) Bir narsaning nomi shu narsadan hosil bo‘ladigan predmetga kuchiriladi

Abdulla Qahhor asarlarida ham metanimiyaning go‘zal namunalarini uchratish mumkin.”Sinchalak” qissasida shunday o‘rinlarni uchratishimiz mumkin.

Zal gurullab kulib yubordi. Qalandarov yana qizarib, terga botib, yerga qaragancha qimirlamay o‘tirar edi, nima bo‘lib ko‘zi Saidaga tushib qoldi. (O‘sha qissa 160-bet)

Bu yerda “Zal kulib yubordi” birikmasida zal hech qachon kulmasligi, ya‘ni bir narsa aytilib turadi ikkinchi bir narsa nazarda tutiladi. Bu joyda zal emas, balki



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

zaldagi insonlar nazarda tutilgan. Bu kabi ma'no ko'chishlardan A.Qahhor shu darajada mohirona qo'llaganki, asarning jozibadorligini oshirishga yordam bergan. Majlis tarqaldi. Byuro a'zolari qolib, vazifa taqsim qilishdi. Umida bilan Ismoiljon Saidani sekretarlikka saylanishi bilan tabriklar ekan. (O'sha qissa 57-bet). Bunda ham "majlis tarqaldi" birikmasida ham metanimiyaning go'zal namunasi uchratish mumkin. Majlisdagi insonlar nazarda tutilgan. Bu kabi vositalardan foydalanish A.Qahhorning "Sinchalak" asarida juda ko'p qo'llangan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Lingvokulturologiya, ma'ruza matnlari, Darvishov Ibrohim O'rmonovich. Namangan 2020
2. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. -Toshkent: Fan.. 2013.
3. Muhammad Hakimov "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" - Toshkent, Akademnashr, 2013.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent, "Fan", 1963.

